

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 399 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUYUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB O'LSHDA QO'LLANILADIGAN QURILMANI LOYIHALASH	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
Tuyev Abdurahmon Yusubovich	
TEMIR YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FOND LARDAN VA ISHLAB CHIQARISH QUUVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....	332
Boboqulov S.B.	
TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR	338
Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	343
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	349
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi	
УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	355
Гимранова О. Б.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI.....	361
Yuldashev Fozil Turapovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	373
Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li	
ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА ПУБЛИЧНОГО ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ДИНАМИКУ ЭКОНОМИКИ	377
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
DIVIDEND SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDA SIFATI VA FOYDANI BOSHQARISHNING TA'SIRI.....	383
Eshev Furqat A'zamovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ УМНЫМ ГОРОДОМ НА БАЗЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ С ОРИЕНТАЦИЕЙ НА ЧЕЛОВЕКА	388
Рахимова Мадина Шухрат кизи	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB SIYOSATINING USLUBIY JIHATLARI	393
Toshpo'latov A. A.	



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB SIYOSATINING USLUBIY JIHATLARI

Toshpo'latov A. A.

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda hisob siyosatining moliyaviy hisobotni shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijasida hisob siyosatining uslubiy jihatlari tahlil qilinib, uni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisob, hisob siyosati, aktivlar, tovar-moddiy zaxiralar, majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar.

Abstract. This article examines the role of accounting policy in the formation of financial statements of economic entities. Based on the results of the study, the methodological aspects of accounting policy are analyzed, and scientific and practical recommendations for their improvement are proposed.

Keywords: financial accounting, accounting policy, assets, inventories, liabilities, income, expenses.

Аннотация. В статье раскрыта роль учетной политики в формировании финансовой отчетности хозяйствующих субъектов. По результатам проведенного исследования проанализированы методологические аспекты учетной политики и разработаны научно-практические предложения по их совершенствованию.

Ключевые слова: финансовый учет, учетная политика, активы, товарно-материальные запасы, обязательства, доходы, расходы.

KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida moliyaviy axborotning ishonchligi, shaffofligi va taqqoslanishi darajasiga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligini baholash, investitsion qarorlar qabul qilish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash jarayonlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur tizimning asosiy va metodologik elementi sifatida hisob siyosati alohida o'rin egallaydi.

Hisob siyosati korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini hisobga olish, umumlashtirish va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishda qo'llaniladigan qoidalar, usullar hamda tamoyillar majmuasini ifodalaydi. U korxona faoliyatining iqtisodiy mazmunini moliyaviy hisobotlar orqali tashqi va ichki foydalanuvchilarga haqqoniy hamda xolis tarzda yetkazib berishni ta'minlaydi. Shu sababli hisob siyosati nafaqat buxgalteriya hisobining texnik hujjati, balki korxonaning iqtisodiy strategiyasini shakllantirish va boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda milliy buxgalteriya hisobi standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) bilan uyg'unlashtirish jarayonlarining jadallashuvi hisob siyosati masalasining dolzarbligini yanada oshirmoqda. Xalqaro standartlarda korxonalarga hisob usullarini tanlash bo'yicha muayyan erkinlik berilishi hisob siyosati orqali iqtisodiy natijalarni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq bu holat, o'z navbatida, hisob siyosatining metodologik jihatlari ilmiy asosda shakllantirish hamda uning iqtisodiy oqibatlarini chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim korxonalarda hisob siyosatining metodologik elementlari faoliyatning real xususiyatlarini to'liq aks ettirish darajasini oshirishni talab etadi. Bu esa moliyaviy hisobot axborotining sifat ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash va hisob ma'lumotlaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yanada samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, hisob siyosatining metodologik jihatlari chuqur o'rganish va uni takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash ilmiy hamda amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hisob siyosati va uning metodologik jihatlarini iqtisodchi olimlar tomonidan keng qamrovli ravishda o'rganilgan. Tadqiqotlar natijalari hisob siyosatining moliyaviy hisobot sifati va iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonidagi muhim rolini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Xususan, Jelena Raičevićning ta'kidlashicha, moliyaviy hisobotlarning sifati tanlangan hisob siyosatiga bevosita bog'liq bo'lib, hisob siyosati xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyatining ichki hujjati sifatida moliyaviy hisobotlarni tashqi foydalanuvchilar uchun tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Boshqa bir guruh iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kompaniyalar o'z faoliyati to'g'risida haqqoniy va adolatli tasavvur shakllantirish maqsadida buxgalteriya hisobi usullarini ongli ravishda tanlashi ta'kidlanadi. Ushbu tanlovlar subyektlarning hisob siyosatida mustahkamlanib, moliyaviy hisobotlarni, ya'ni moliyaviy holat, xo'jalik faoliyati natijalari va pul oqimlarini tuzish hamda sharhlashning metodologik asosini tashkil etadi [2].

C. Armstrong, S. Glaeser va J. Kepler tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ham hisob siyosatining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur olimlarning ilmiy xulosalariga ko'ra, hisob siyosati kompaniya moliyaviy ko'rsatkichlarini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi hamda moliyaviy natijalarning talqin qilinishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [3].

S. Ferdinand va H. Rangga tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa hisob siyosatini o'zgartirish daromadlarni boshqarishning samarali usullaridan biri sifatida baholanadi. Mualliflarning fikricha, kompaniyalar moliyaviy va iqtisodiy muhitdagi tub o'zgarishlar sharoitida yanada aniq va ishonchli buxgalteriya axborotini shakllantirish maqsadida o'z hisob siyosatini takomillashtirib boradilar [4].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev va S.A. Jumanazarov tomonidan yaratilgan darslikda hisob siyosati xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va tuzishda qo'llaniladigan o'ziga xos qoidalar hamda amaliy yondashuvlar majmuasi sifatida talqin etiladi [5]. Ushbu yondashuv hisob siyosatining nazariy va amaliy jihatlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

N.B. Abdusalomova va F.T. Temirov hisob siyosatining tashkiliy jihatlarini tahlil qilib, raqamli iqtisodiyot sharoitida har bir korxona, tashkilot yoki firma amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ravishda hisob siyosatini mustaqil belgilashini qayd etadilar. Mualliflarning ta'kidlashicha, ushbu siyosat rahbariyat yoki mulk egasining tegishli buyrug'i asosida joriy etilib, unda buxgalteriya apparatini tashkil etish, moliyaviy va boshqaruv hisobini yuritish hamda hisob jarayonining aniq tartib-qoidalari belgilab qo'yiladi [6].

N. Toshmamatov, I. Ismanov va S. Buzruxanov tomonidan yaratilgan darslikda esa hisob siyosati korxona rahbari tomonidan O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish bo'yicha amaldagi qoidalarga muvofiq ishlab chiqilgan usullarni qo'llash tartibi sifatida izohlanadi [7]. Ushbu ta'rif hisob siyosatining huquqiy va metodologik asoslarini aniq ifodalaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning umumqabul qilingan va zamonaviy metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, hisob siyosatining metodologik jihatlarini har tomonlama tahlil qilish maqsadida taqqoslash usuli qo'llanilib, turli ilmiy yondashuvlar hamda nazariy qarashlar o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar aniqlandi.

Tadqiqot davomida tahlil va sintez usullari orqali hisob siyosatining alohida elementlari chuqur o'rganilib, ularning o'zaro bog'liqligi hamda moliyaviy hisobot sifati ta'siri tizimli ravishda umumlashtirildi. Induksiya va deduksiya usullaridan foydalanish esa alohida kuzatish va faktlardan umumiy ilmiy xulosalar chiqarish, shuningdek, umumiy nazariy qoidalar asosida amaliy holatlarni asoslab berish imkonini yaratdi.

Qo'llanilgan metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini, mantiqiy izchilligini hamda amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qildi. Ushbu metodlar majmuasi hisob siyosatining mazmun-mohiyatini to'liq ochib berish hamda uni takomillashtirish bo'yicha xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hisob siyosati korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini aks ettiruvchi buxgalteriya hisobi tizimining asosiy metodologik poydevorini tashkil etadi. U korxona tomonidan moliyaviy hisobni yuritish, hisob ma'lumotlarini umumlashtirish hamda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonida qo'llaniladigan tamoyillar, usullar, qoidalar va texnik yechimlar majmuasini ifodalaydi. Hisob siyosati orqali korxona o'z faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda hisobni tashkil etishda muayyan mustaqillikka ega bo'ladi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan hisob siyosati korxonaning moliyaviy natijalarini shakllantirish, aktivlar va majburiyatlarni baholash, daromadlar hamda xarajatlarni tan olish va taqsimlash jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash usulining tanlanishi, tovar-moddiy zaxiralarni



baholash tartibi yoki rezervlarni shakllantirish qoidalari hisob siyosati orqali belgilanadi. Ushbu tanlovlar korxona foydasi, soliq majburiyatlari va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining shakllanishida o'z aksini topadi.

Hisob siyosatining iqtisodiy mazmuni uning axborot yaratish funksiyasi bilan ham uzviy bog'liqdir. Korxona faoliyati natijasida shakllanadigan moliyaviy axborot aynan hisob siyosatida belgilangan metodologik yondashuvlar asosida tayyorlanadi. Shu bois hisob siyosati moliyaviy hisobot foydalanuvchilari, jumladan investorlar, kreditorlar, davlat organlari, menejerlar hamda boshqa manfaatdor tomonlar uchun iqtisodiy qarorlar qabul qilishda ishonchli va samarali axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

Shu bilan birga, hisob siyosati korxonada boshqaruv qarorlarini qabul qilishning iqtisodiy asosini ham shakllantiradi. Hisob siyosati orqali xarajatlarni hisobga olish, mahsulot (ish, xizmat) tannarxini aniqlash, rentabellikni baholash va strategik rejalashtirish uchun zarur bo'lgan axborot bazasi yaratiladi. Demak, hisob siyosati nafaqat moliyaviy hisobotni tayyorlash vositasi, balki korxonaning ichki boshqaruv tizimida muhim iqtisodiy instrument sifatida ham namoyon bo'ladi.

Hisob siyosatining iqtisodiy mazmunini uning huquqiy asoslari bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega. Amaliyotda hisob siyosati buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari hamda amaldagi qonunchilik talablari doirasida shakllantiriladi. Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlar korxonalarga bir qator hisob usullaridan birini tanlash huquqini berib, hisob siyosatining iqtisodiy mazmunini boyitadi hamda uni korxona faoliyatining individual xususiyatlariga moslashtirish imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, hisob siyosati moliyaviy hisobotlarning taqqoslanishini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Hisob usullarining bir hisobot davridan keyingi davrlarda izchil qo'llanilishi korxonaning moliyaviy holati va faoliyat natijalarini dinamik tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, turli korxonalar o'rtasida moliyaviy hisobot ma'lumotlarini solishtirish jarayonida ham hisob siyosati muhim metodologik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, hisob siyosati faqat texnik yoki tashkiliy hujjat sifatidagina emas, balki korxonaning moliyaviy-iqtisodiy strategiyasini aks ettiruvchi, moliyaviy natijalarni shakllantirishga faol ta'sir ko'rsatuvchi va axborot sifatini ta'minlovchi kompleks iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Uning mohiyati va iqtisodiy mazmunini chuqur anglash hisob tizimini takomillashtirish, moliyaviy hisobot sifatini oshirish hamda korxona boshqaruv samaradorligini ta'minlash uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

1-jadvalda hisob siyosatining metodologik asosiy elementlari va ularning moliyaviy natijalarga ta'siri tizimli tarzda yoritilgan. Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, hisob siyosatida qo'llaniladigan har bir metodologik element korxonaning moliyaviy holati va iqtisodiy natijalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Xususan, aktivlarni baholash va amortizatsiya usullarini tanlash orqali korxona aktivlar qiymatini hamda hisobot davri foydasini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Zaxiralarni baholash usullari esa mahsulot tannarxi va yalpi foyda ko'rsatkichlarining shakllanishiga bevosita ta'sir etib, narx belgilash hamda raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1-jadval. Hisob siyosatining metodologik asoslarining tarkibiy elementlari¹

№	Metodologik element	Mazmuni	Moliyaviy natijalarga ta'siri
1	Aktivlarni baholash usullari	Aktivlarni boshlang'ich, joriy, qayta baholangan yoki amortizatsiyalangan qiymatda baholash yondashuvlari	Aktivlar qiymati va xususiy kapital hajmining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi
2	Amortizatsiya usullari	To'g'ri chiziqli, kamayib boruvchi qoldiq, bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib va kumulyativ usullar	Foyda miqdori hamda soliq yukining darajasini belgilaydi
3	Tovar-moddiy zaxiralarni baholash	FIFO, LIFO va o'rtacha tortilgan qiymat usullari	Mahsulot tannarxi va yalpi foyda ko'rsatkichlarining shakllanishiga ta'sir etadi
4	Daromadlarni tan olish	Huquqning vujudga kelishi yoki pul tushumi asosida tan olish yondashuvlari	Hisobot davri moliyaviy natijalarining aniqligini ta'minlaydi
5	Xarajatlarni tan olish	Xarajatlarni davr xarajatlari sifatida yoki mahsulot tannarxiga kiritish tartibi	Moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi

Shuningdek, daromadlar va xarajatlarni tan olish qoidalari hisobot davrlari kesimida moliyaviy natijalarni to'g'ri va izchil taqsimlash imkonini yaratadi. Natijada hisob siyosatining metodologik asoslari korxonada

¹ Muallif ishlanmasi

nafaqat hisob yuritish vositasi sifatida, balki moliyaviy natijalarni rejalashtirish hamda strategik boshqaruvni ta'minlovchi muhim instrument sifatida namoyon bo'ladi.

Moliyaviy hisobotning sifati korxona faoliyati to'g'risida to'liq, ishonchli va xolis axborot taqdim etilishi bilan belgilanadi. Ushbu sifat ko'rsatkichlarini ta'minlashda hisob siyosati hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, u moliyaviy hisobotni shakllantirishning metodologik asosi sifatida xizmat qiladi. Hisob siyosati orqali korxona moliyaviy hisobotda qo'llaniladigan hisob usullari, baholash mezonlari va hisoblash tartiblarini belgilaydi, bu esa axborot sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Hisob siyosati moliyaviy hisobot sifatiga, avvalo, uning ishonchliligi, taqqoslanishi, to'liqligi, shaffofligi hamda o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash orqali ta'sir etadi. Mazkur sifat tavsiflari xalqaro moliyaviy hisobot konsepsiyasida asosiy talablar sifatida e'tirof etilgan bo'lib, hisob siyosati ularni amaliyotga tatbiq etishning samarali vositasi hisoblanadi.

Hisob siyosati doirasida tanlangan hisob usullari moliyaviy hisobot ma'lumotlarining haqqoniy va aniq aks ettirilishiga xizmat qiladi. Jumladan, aktivlarni baholash, amortizatsiya usulini tanlash, daromadlarni tan olish hamda xarajatlarni taqsimlash tartiblarining hisob siyosatida aniq belgilanishi moliyaviy axborotda subyektiv yondashuvlarning kamayishiga olib keladi.

Ayniqsa, mazmunning shakldan ustunligi prinsipiga asoslangan hisob siyosati moliyaviy hisobotning real iqtisodiy mazmunini to'liq va ishonchli ochib berishga xizmat qiladi. Bu esa hisobot foydalanuvchilari uchun axborotning amaldagi iqtisodiy holatni aks ettirish darajasini oshiradi hamda qaror qabul qilish samaradorligini kuchaytiradi (2-jadval).

2-jadval. Hisob siyosatining moliyaviy hisobot sifat ko'rsatkichlariga ta'siri²

№	Moliyaviy hisobot sifat ko'rsatkichi	Hisob siyosatining ta'sir mexanizmi	Amaliy natija
1	Ishonchlilik	Baholash va hisob usullarining aniq belgilanishi	Xatoliklar va ma'lumotlarni buzib ko'rsatish holatlari sezilarli darajada kamayadi
2	Taqqoslanish	Izchil va barqaror hisob siyosatining qo'llanilishi	Hisobot davrlari bo'yicha tahlil imkoniyatlari kengayadi
3	To'liqlik	Barcha muhim axborotlarning to'liq ochib berilishi	Boshqaruv va investitsion qarorlar qabul qilish samaradorligi oshadi
4	Shaffoflik	Izohlar va ilova ma'lumotlarining batafsil yoritilishi	Moliyaviy hisobot foydalanuvchilari ishonchi mustahkamlanadi
5	O'z vaqtida taqdim etish	Hisob jarayonlarining standartlashtirilishi	Operativ va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati yaratiladi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, hisob siyosati moliyaviy hisobot sifatining barcha asosiy ko'rsatkichlariga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Ishonchlilikni ta'minlash hisob siyosatida baholash va hisoblash qoidalarining aniq hamda tushunarli tarzda belgilanishi orqali amalga oshiriladi. Bu holat hisob axborotida xatoliklar yuzaga kelish ehtimolini kamaytirishga hamda ma'lumotlarning haqqoniy aks ettirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Taqqoslanish izchil va barqaror hisob siyosatiga asoslanadi. Agar hisob siyosati asossiz ravishda tez-tez o'zgartirilmasa va zarur o'zgarishlar ilmiy hamda me'yoriy jihatdan asoslangan holda izohlanib borilsa, moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini vaqt oralig'ida solishtirish imkoniyati yaratiladi. Bu holat tahlilchilar va investorlar uchun moliyaviy axborotni baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

To'liqlik va shaffoflik hisob siyosatida axborotni ochib berish talablari to'liq bajarilishi orqali ta'minlanadi. Hisob siyosatida moliyaviy hisobotga ilova qilinadigan izohlar, hisoblash usullari hamda mavjud risklar to'g'risidagi ma'lumotlar qanchalik batafsil yoritilsa, moliyaviy hisobotning axborot qiymati shunchalik yuqori bo'ladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq shakllantirilgan hisob siyosati moliyaviy hisobot sifatiga yanada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablariga asoslangan hisob siyosati hisobot ma'lumotlarining xalqaro miqyosda taqqoslanishini ta'minlab, korxonaning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hisob siyosatining milliy standartlar bilan uyg'un holda qo'llanilishi milliy iqtisodiyotda hisob axborotining yagona va izchil talqin qilinishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, hisob siyosati moliyaviy hisobot sifatini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. U moliyaviy hisobotni shakllantirish jarayonidagi barcha metodologik qarorlarni yagona tizimga keltirib, hisob axborotining ishonchli, shaffof va taqqoslanadigan bo'lishini ta'minlaydi. Samarali va ilmiy asoslangan tarzda

2 Muallif ishlanmasi.



shakllantirilgan hisob siyosati nafaqat moliyaviy hisobot sifatini oshiradi, balki korxonaning strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ham muhim axborot manbai sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hisob siyosati korxonaning moliyaviy hisobotini shakllantirishda faqat texnik hujjat sifatida emas, balki strategik boshqaruvni ta'minlovchi muhim instrument sifatida namoyon bo'ladi. O'tkazilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, hisob siyosati doirasida tanlangan baholash usullari, hisoblash qoidalari hamda axborotni ochib berish darajasi moliyaviy hisobotning ishonchliligi, xolisligi va taqqoslanishini bevosita belgilaydi. Hisob siyosatida izchillik va asoslanganlik ta'minlangan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlarining tahliliy qiymati oshadi hamda ulardan foydalanish samaradorligi kuchayadi.

Hisob siyosati moliyaviy hisobot sifatining asosiy tavsiflari — ishonchlilik, to'liqlik, shaffoflik, o'z vaqtida taqdim etish va taqqoslanishni ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Ayniqsa, hisob siyosatini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga muvofiq shakllantirish korxonalar tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy axborotning xalqaro miqyosda e'tirof etilishiga xizmat qilishi aniqlandi.

Hisob siyosati orqali korxona moliyaviy natijalarni samarali boshqarish, xarajatlar hisobini optimallashtirish hamda aktivlardan oqilona va samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu holat hisob siyosatining faqat moliyaviy hisobotlarni tayyorlash vositasi emas, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot bazasi ekanligini yaqqol namoyon etadi.

Hisob siyosatini shakllantirish jarayonida korxonaning tarmoq xususiyatlari, faoliyat ko'lam va strategik maqsadlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, hisob siyosatida qo'llanilayotgan usullarning o'zgarishi faqat iqtisodiy jihatdan asoslangan hollarda amalga oshirilishi hamda ushbu o'zgarishlar moliyaviy hisobotlarda belgilangan tartibda ochib berilishi zarur.

Samarali shakllantirilgan va ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan hisob siyosati moliyaviy hisobot sifatini oshirish, hisob axborotidan foydalanuvchilarning ishonchini mustahkamlash hamda korxonaning bozor sharoitida raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Raičević, J. Accounting policies in the function of quality assessment of financial statements. — *Economic Themes*, 59(3), 357–373-betlar.
2. Fekete, Sz., Damagum, Y. M., Mustață, R., Mătiș, D., Popa, I. Explaining accounting policy choices of SMEs: An empirical research on the evaluation methods. — *European Research Studies*, XIII(1), 2010.
3. Armstrong, C. S., Glaeser, S., Kepler, J. D. (2019). Accounting quality and the transmission of monetary policy. — *Journal of Accounting and Economics*, 68(2–3), 101265. <https://doi.org/10.1016/j.jacceco.2019.101265>
4. Siagian, F., Handika, R. (2024). Accounting policy changes and firm debts: Evidence from Japan. — *Accounting, Finance & Governance Review*, 32, 1–27-betlar.
5. Karimov, A. A., Kurbanbayev, J. E., Jumanazarov, S. A. Moliyaviy hisob va hisobot. Darslik. — Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2019. — 400 bet.
6. Abdusalomova, N. B., Temirov, F. T. Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. — Toshkent: "Iqtisodiyot", 2021. — 283 bet.
7. Toshmamatov, N., Ismanov, I., Buzrukhanov, S. Moliyaviy hisob va hisobot. Darslik. — Toshkent: "Sano-Standart", 2019. — 560 bet.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100